

10 sinf Algebra IV chorak 8-BSB topshiriqlari va mezonlari

Bob	Mavzu	Baholanadigan ko'nikma	Namunaviy topshiriq	Ajratilgan ball
VI bob. Ehtimollar nazariyasi (7 soat)		Hodisa ehtimolini klassik ta'rif yordamida topa oladi	Yashikda 10 ta shar bor: 6 ta oq va 4 ta qora. Tavakkaliga 2 ta shar olindi. Ikkala shar ham oq bo'lish hodisasining ehtimolini toping.	3
	Ehtimollik tariflari	Kombinatorik masalada ehtimollikni klassik tarifdan foydalanib topa oladi	Do'konda 6 nafar erkak va 4 nafar ayol kishi ishlaydi. Tabeldagi tartib raqami bo'yicha tasodifiy ravishda 7 kishi tanlab olindi. Tanlab olinganlar orasida 3 nafar ayol kishi bo'lish ehtimolligini toping.	5
		Uzunlikka doir ehtimollik masalasini ehtimollikning geometrik ta'rifi yordamida topa oladi	Uzunligi 30 cm bo'lgan L kesmaga uzunligi 12 cm bo'lgan l kesma joylashtirilgan. Katta kesmaga tavakkaliga qo'yilgan nuqtaning kichik kesmaga ham tushish ehtimolligini toping. Nuqtaning kesmaga tushish ehtimolligi kesmaning uzunligiga to'g'ri proporsional bo'lib, uning joylashishiga bog'liq emas deb faraz qilinadi.	3
		Yuzga doir ehtimollik masalasini ehtimollikning geometrik ta'rifi yordamida topa oladi	Radiusi 20 cm bo'lgan doira ichida bir-biri bilan kesishmaydigan va birining radiusi 5 cm, ikkinchisidiki 10 cm bo'lgan ikkita doira o'tkazilgan. Katta doira ichida tavakkaliga olingan nuqta kichik doiralardan birining ichida bo'lish ehtimolligini toping.	4
		Turli masalalarda ehtimollikni ehtimollik tariflari yordamida topa oladi	Qutida 12 ta oq, 8 ta qizil shar bor. Tavakkaliga a) bitta shar olinganda uning oq bo'lishi; b) bitta shar olinganda uning qizil bo'lishi; c) 2 ta shar olinganda ularning turli rangda bo'lishi; d) 2 ta shar olinganda ularning bir rangda bo'lishi; ehtimolligini toping.	5
Jami				20 ball